

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YIY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAXAROV QODIRBEK TOLKUNOVICH

**BERILGANLARDA NOANIQLIK BO'LGANDA
QAROR QABUL QILISH TIZIMI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024



**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Maxarov Qodirbek Tolkunovich

Berilganlarda noaniqlik bo'lganda qaror qabul qilish tizimi 3

Махаров Кодирбек Толкунович

Система принятия решений при наличии неопределённости в данных 21

Makharov Kodirbek Tolkunovich

Decision making system in the presence of uncertainty in data 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 42



**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2021.T.142.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MAXAROV QODIRBEK TOLKUNOVICH

**BERILGANLARDA NOANIQLIK BO'LGANDA
QAROR QABUL QILISH TIZIMI**

05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024



Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4194 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.airi.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mdraximov Shavkat Fayzullayevich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Muxamediyeva Dilnoz Tulkunovna**
texnika fanlari doktori, professor

Mirzayev Nomaz
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi**
Toshkent Davlat Texnika Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.13/30.12.2021.T.142.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «06» 09 soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (99871) 263-41-98, e-mail: info@airi.uz)

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (45 raqam bilan ro'yxatga olingan). (100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (99871) 263-41-98).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «23» 08 kuni tarqatildi.
(2024 yil «22» 07 dagi 11 raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

[Handwritten signature]

N.Ravshanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh.X.Fozilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kompyuter texnologiyalari jadal suratlarda rivojlanishi va ularning inson faoliyatining turli sohalarda qo'llanilishi bilan bog'liq holda berilganlarga sifatli (intellektual) ishlov berishga ehtiyoj kuzatilmoqda. Jamiyatning innovatsion rivojlanishidagi asosiy omil – bu bilimdir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, hamda Amazon, Alibaba, Google, Yandex va Microsoft kabi xalqaro kompaniyalarda prognoz qilish, regressiya va tasniflash (klassifikatsiya) masalalarini yechishga yo'naltirilgan sun'iy intellekt tizimlarini yaratish doirasida berilganlarga intellektual ishlov berish usullarini ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha faol ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mavjud bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, yangi qonunlar va qonuniyatlarni ochish hisobiga ularning salmog'ini oshirib borishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda jahonda zaif tuzilmali predmet sohalardagi bilimlarga asoslangan informatsion modellarni qurish maqsadida berilganlarga dastlabki ishlov berish usullari keng tadqiq etilmoqda. Noto'g'ri berilganlarni erta tozalash turli sohalarda berilganlarni tahlil qilishda jiddiy muammoga aylangan. Ko'plab o'tkazilgan so'rovlar tahlillari natijasiga ko'ra barcha berilganlarning 38-39 foizida sifat ko'rsatkichi past. Sifatsiz berilganlarning tahliliga ko'ra, ularning 14-15 foizi dublikatlar, 9-11 foizi noto'g'ri qiymatlar, 6-7 foizi to'liq bo'lmagan berilganlar, qolganlari noto'g'ri elektron pochta manzillari, turar joy ma'lumotlarining mos kelmasligi, formatning xatosi va h.k. Mashinali o'rgatish uchun tanlanmani shakllantirishda hal qilinmagan muammo sifatida obyektlar tavsifidagi alomatlar juftligi bo'yicha qiymatlarning mumkinligini tekshirishning mavjud emasligini keltirish mumkin. Bu muammoning o'ziga xosligi predmet soha, berilganlar to'g'riligini tekshirish uchun latent parametrlarni shakllantirish, xatolarni aniqlash uchun intellektual tizim yaratish bilan bog'liq. Shu sababli, noto'g'ri berilganlarni erta tozalash, o'tkazib yuborilgan berilganlarni qayta ishlash hamda keng doiradagi foydalanuvchilarga mo'ljallangan qulay interfeysga ega dasturlar majmuini yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarining katta ahamiyati va salohiyatini e'tirof etgan holda unga asoslangan tizimlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Sun'iy intellekt uchun davlat ma'lumotlarini shakllantirishga mas'ul tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari o'ziga taalluqli qismlarda ma'lumotlarni o'z vaqtida joylashtirish, shuningdek, ularning to'liqligi, dolzarbligi hamda ishonchiligi yuzasidan shaxsan javobgar..."¹ kabi vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 18 fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori

kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2018 yil 2 avgustdagi PQ-3894-son "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 6 oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 17 fevraldagi PQ-4996-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2022 yil 22 avgustdagi PQ-357-son "2022-2023 yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda axborot texnologiyalari sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda berilganlardagi noaniqliklarni tahlil qilish, berilganlar sifatini oshirish, berilganlar bazasidan yashirin qonuniyatlarni aniqlash, to'liq bo'lmagan berilganlarni tahlil qilish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Yu.I.Juravlev, V.A.Dyuk, V.N.Vapnik, K.V.Vorontsov, T.A.Gavrilova, A.Zimek, G.Litens, E.Ram, S.A.Zaxin, P.J.Garsiya-Laensina, V.Pedrits, J.Liu va boshqa xorijiy olimlarning bu boradagi ilmiy ishlari qiyosiy o'rganib chiqildi. Yu.I.Juravlev obrazlarni anglash masalasiga algebraik yondashuv nazariyasini ishlab chiqdi, V.A.Dyuk ishlarida berilganlardan mantiqiy qonuniyatlarni izlash algoritmlarining kombinatorik murakkabligini kamaytirish usullari taklif qilingan, S.A.Zaxin, P.J.Garsiya-Laensinalar to'liq bo'lmagan berilganlarda tasniflash masalalarini ishlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan, V.Pedrits anomal obyektlarni aniqlashda yaqin qo'shni algoritmlariga tayangan yakkalovchi o'rmon usullarini taklif qilgan, E.Ram berilganlarni tozalash, sifatli berilganlar muammolarini o'rgangan va ularni turli mezonlar bo'yicha tasniflagan.

O'zbekistonda obrazlarni anglash, intellektual tizimlarda bilimlarga ishlov berish, yashirin qonuniyatlarni aniqlash, alomatlar fazosi o'lchamini qisqartirish va olingan natijalarning samaradorligini aniqlash bo'yicha muvaffaqiyatga erishgan bir qator olimlarni ko'rsatish mumkin, jumladan, akademik M.M.Kamilov, T.F.Bekmuratov, F.T.Adilova, Sh.H.Fazilov, D.T.Muxamadiyeva, N.S.Mamatov, N.A.Ignatev, M.M.Musayev va boshqalar ushbu sohalar rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib kelishmoqda.

Bugungi kunda real masalalarda berilganlarda turli noaniqliklar, xususan, to'liq bo'lmagan berilganlar va alomatlarda mumkin bo'lmagan qiymatlarning uchrashi mavjud. Ushbu yo'nalish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, berilganlardagi to'liq bo'lmagan va mantiqiy mos kelmaydigan

qiymatlari bo'lgan holda intellektual qaror qabul qilish texnologiyalari (algoritm(lari)) yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-Atex-2018-224 "Yo'g'on ichak yallig'lanishi va kolorekal saratonining rivojlanishi, kechishi va oqibatlarini prognoz qilish, hamda etiopatogenez va tavakkalchilik faktorlarini inobatga olgan holda diagnostikani amalga oshirish va davolashning axborot modelini ishlab chiqish" (2018-2021) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tanlanma obyektlari tavsifidagi mantiqiy mos kelmaydigan qiymatlarni aniqlash va to'liq bo'lmagan berilganlar mavjud holatlarda tasniflash masalasini yechishning algoritm(lari) hamda dasturiy majmuasini (tizimini) ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

obyektlar tavsifidagi miqdoriy alomatlar juftliklari bo'yicha berilganlardagi mantiqiy mos kelmaslikni aniqlash algoritmini ishlab chiqish;

to'liq bo'lmagan berilganlarda alomatlar to'plamining informativligini baholash algoritmini ishlab chiqish;

to'liq bo'lmagan berilganlarni hisobga olgan holda umumlashgan baholar asosida obyektlarni tasniflash uchun alomatlar fazosini qurish;

alomatlar fazosini qisqartirish jarayonida parallel dasturlash paradigmalarini qo'llash;

ishlab chiqilgan algoritm(lar) asosida amaliy masalalarni yechishga mo'ljallangan dasturiy majmuani yaratish.

Tadqiqot obyekti sifatida berilganlarga intellektual ishlov berish usullari asosida qaror qabul qiluvchi informatsion modellar olingan.

Tadqiqot predmeti berilganlarda mantiqiy mos kelmaslikni izlash, alomatlar juftligi uchun mumkin bo'lgan qiymatlar chegaralarini hisoblash, alomatlarning turg'unligini baholash, to'liq bo'lmagan berilganlarda umumlashgan baholash usuli yordamida alomatlar fazosini qisqartirishga asoslangan algoritm(lar)dan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni olib borish jarayonida berilganlarni intellektual tahlil qilish, mashinali o'rgatish, obyektga yo'naltirilgan dasturlash, parallel dasturlash, sonli natijalarni vizuallashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

miqdoriy alomatlar juftligi bo'yicha mantiqiy mos kelmaslikni aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

miqdoriy alomatlar juftliklari bo'yicha mumkin bo'lgan qiymatlarni hisobga olgan holda bilimlar bazasini shakllantirish uslubiyati ishlab chiqilgan;

turg'unlik o'lchovi asosida alomatlar to'plamining informativligini baholash algoritmi va qaror qabul qilish tizimi ishlab chiqilgan;

berilganlarda noaniqlik bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun umumlashgan baholar asosida alomatlar fazosi o'lchamini qisqartirish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

predmet soha uchun anomal obyektlar bo'yicha qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash metodologiyasi taklif qilingan;

to'liq bo'lmagan berilganlarda tasniflash muammosini yangi, qisqartirilgan alomatlar fazosini shakllantirish orqali yechish taklif qilingan;

berilganlarda noaniqlik bo'lganda dastlabki ishlov berishga asoslangan qaror qabul qilishning IDEF modeli ishlab chiqilgan;

latent alomatlar fazosini shakllantirishda vaqt samaradorligiga erishish uchun parallel algoritmlar taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi predmet sohalar tanlanmalarida hamda Internet global tarmog'ining maxsus saytlarida joylashtirilgan repozitoriylardan olingan berilganlar bazalarida o'tkazilgan hisoblash tajribalari, turg'unlik mezonidan foydalanish, tadqiqot sohasidagi mutaxassis bo'lgan boshqa mualliflarning tadqiqotlarida olingan natijalar bilan qiyosiy taqqoslash orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tanlanma obyektlari tavsifidagi miqdoriy alomatlar juftligi uchun mumkin bo'lmagan qiymatlarni aniqlash va to'liq bo'lmagan berilganlar uchun umumlashgan baholardan foydalangan holda alomatlar fazosi o'lchamini qisqartirishga asoslangan qaror qabul qilish uslubiyati ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan algoritmlar va ular asosida yaratilgan dasturiy ta'minotdan turli predmet sohalarda to'liq bo'lmagan berilganlarda tasniflash masalasini yechishda, alomatlar juftligi bo'yicha mantiqiy mos kelmaydigan qiymatlarni aniqlash maqsadida foydalanish mumkinligi hamda soha mutaxassislari uchun qaror qabul qilishda yordam beruvchi dasturiy vositalar yaratilganligi va konkret masalalarga qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Berilganlarda noaniqlik bo'lganda qaror qabul qilish uchun ishlab chiqilgan algoritmlar va ularning dasturiy ta'minoti yordamida olingan ilmiy yangiliklar asosida:

miqdoriy alomatlar juftliklari uchun mumkin bo'lgan qiymatlar bo'yicha intervallarni hisoblash algoritmi asosida mantiqiy mos kelmaydigan qiymatlarni aniqlash, berilganlarda noaniqliklar bo'lgan holatlarda qabul qilinadigan qarorlarning ishonchliligini baholash algoritmlari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024 yil 16 maydagi № 33-8/3190-son ma'lumotnomasi). Natijada o'pka sili bo'yicha berilganlar bazasini shakllantirish jarayonida berilganlarni tekshirish va qaror qabul qilish jarayoni vaqtini 10-15% ga qisqartirish imkonini bergan;

berilganlarda noaniqlik bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun umumlashgan baholar asosida alomatlar fazosini qisqartirish algoritmi va latent alomatlar fazosini shakllantirish jarayonining parallel algoritmi asosida yaratilgan qaror qabul qilish tizimi "UNICON.UZ" – Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazida tadqiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024 yil 16 maydagi № 33-8/3190-son ma'lumotnomasi). Natijada ma'lumotlarni qayta

ishlash va qaror qabul qilish jarayoni vaqtini 15-20 foizga qisqartirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy va amaliy natijalari 15 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining EHM uchun dasturiy mahsulot qayd etilganligi haqida 5 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalar belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan va nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilganligi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Berilganlarga dastlabki ishlov berish”** deb nomlangan birinchi bobida berilganlar va ularning xossalari, alomatlar fazosini shakllantirish, berilganlarga dastlabki ishlov berishning usul va algoritmlari qiyosiy tahlil etilgan. Xususan, berilganlarni saqlash vositalari va ko'rinishlari, alomatlarining mumkin bo'lgan qiymatlari shkalalari keltirilgan. Ayni paytda ma'lumotlar deyarli hamma joyda yaratiladi: seysmik sensorlarning mintaqaviy tarmoqlari, tibbiy muassasalarda bemorlarning holati to'g'risidagi so'rovnomalar va yozuvlar, muayyan mavzu bo'yicha jamoatchilik fikrini o'rganish, mobil aloqa provayderlaridagi mijozlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi va boshqalar. Ushbu yig'ilayotgan real dunyo ma'lumotlarining aksariyati umumiy kamchilikka ega - yetishmayotgan yoki noaniq ma'lumotlar. Masalan, sanoat tajribasida ma'lumotlarni yig'ish jarayonida mexanik/elektron nosozliklar tufayli ba'zi natijalar bo'lmasligi mumkin, tibbiy diagnostikada ba'zi tekshiruvlarni o'tkazib bo'lmaydi, chunki shifoxonada kerakli tibbiy asbob-uskunalar mavjud emas yoki ayrim tibbiy tekshiruvlar ma'lum bemorlarga mos kelmasligi mumkin. Yana bir misol, har xil turdagi testlarni o'tkazadigan shifokor tomonidan tekshiruv bo'lishi mumkin; ba'zi testlarning natijalari bir zumda mavjud bo'lishi, boshqalari esa bir necha kun talab qilishi mumkin. Har qanday holatda, faqat mavjud natijalardan foydalangan holda, darhol dastlabki tashxis qo'yish kerak bo'lishi mumkin. Bunda uch xil yondashuvdan foydalaniladi: noaniq qiymatlari bo'lgan obyektlar yoki

alomatlarni o‘chirib tashlash; noaniq qiymatlarni hisoblash orqali to‘ldirish; noaniq qiymatlar bilan masalani yechish. Birinchi ikkita yondashuv bir qancha kamchiliklarga ega, shu sababli noaniq qiymatlar bilan masalani yechishning usul va algoritmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri.

Dissertatsiyaning “**Alomatlarning mumkin bo‘lgan qiymatlarini nazorat qilish algoritmi**” deb nomlangan ikkinchi bobida predmet sohada alomatlar juftliklari bo‘yicha mumkin bo‘lmagan qiymatlarni aniqlash usuli taklif qilingan va undan foydalanib kiruvchi qiymatlarda xatolarni aniqlashga mo‘ljallangan algoritmlar taklif qilingan.

$X = (x_1, \dots, x_n)$ miqdoriy alomatlar bilan tavsiflanuvchi $E_0 = \{S_1, \dots, S_m\}$ obyektlar to‘plami $A = \{a_{uv}\}_{m \times n}$ jadval ko‘rinishida berilgan bo‘lsin. Har bir $(x_i, x_j) \in X(n)$ alomatlar juftligi bo‘yicha quyidagilarni aniqlash talab qilinadi:

- mumkin bo‘lgan $[z_1, z_2]$ interval chegaralarini quyidagi formula asosida:

$$R(i, j) = \left\{ \frac{a_{ki}}{P_i} - \frac{a_{kj}}{P_j} \right\}_{k \in \{1, \dots, m\}}, \quad (1)$$

bu yerda $S_k = (a_{k1}, \dots, a_{kn})$, $S_k \in E_0$, P_i, P_j – mos ravishda E_0 to‘plamdagi x_i va x_j alomatlar medianalari qiymatlari;

- z_1 va z_2 – interval chegaralari qiymatlari:

$$z_1 = \min_{E_0} R(i, j), z_2 = \max_{E_0} R(i, j). \quad (2)$$

Shuni ta’kidlash kerakki, faqatgina soha mutaxassisi alomatlar juftligi qiymatlari mantiqiy to‘g‘riligini baholay oladi. Ushbu usulni dastlabki ishlov berishda mos ekspertni jalb qilish orqali quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Har bir (x_i, x_j) , $i < j$, $1 \leq i, j \leq n$ alomatlar juftligi uchun $Z = \{[z_1^{ij}, z_2^{ij}]\}$ intervallar to‘plamini qurish;
2. Interval chegarasida yotuvchi obyektlar to‘plamini qurish:

$$\Pi = \bigcup_{i, j \in I, i \neq j} \left\{ S_u, S_v \left| \frac{a_{ui}}{P_i} - \frac{a_{uj}}{P_j} = z_1 \text{ ba } \frac{a_{vi}}{P_i} - \frac{a_{vj}}{P_j} = z_2 \right. \right\};$$

3. $\forall S_u \in \Pi$ obyekt uchun qiymatlar mumkinligining ekspert xulosasini qabul qilish (o‘zgarishsiz qoldirish, berilgan qiymatlarni to‘g‘rilash yoki obyektни o‘chirish);
4. Agar tanlanma o‘zgartirilgan bo‘lsa (1) va (2) ga ko‘ra mumkin bo‘lgan qiymatlar uchun interval chegaralarini qayta hisoblash.

Algoritm tomonidan shakllantirilgan Z intervallar bazasidan qo‘yilgan masalani yechishda yangi obyektни tavsiflashdagi qiymatlarning mantiqiy mos kelishini tekshirishda foydalanish mumkin. Bunda mumkin bo‘lmagan obyektни aniqlashda ikki turdagi xato keltirilishi mumkin:

- “*kritik xato*” – alomatlar juftligi bo‘yicha qiymati interval chegarasida yoki chegarasidan tashqarida yotgan obyekt uchun;

- “*ogohlantirish*” – alomatlar juftligi bo‘yicha qiymati interval chegarasiga “*xavfli*” darajada yaqin joylashgan obyekt uchun.

Hisoblash eksperimenti uchun Nancy Howell tomonidan to'plangan "Kalahari !Kung San people" tanlanmasi olindi. Ushbu tanlanmadan faqatgina odamning yoshi, bo'y uzunligi va vazn alomatlari bo'yicha olingan juftliklarga tahlil qilindi. Tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Alomatlar juftligi bo'yicha intervallar qiymatlari

	Alomatlar juftligi	$[z_1, z_2]$ interval	Interval chegarasida yotuvchi obyektlar (alomatlar juftligi qiymatlari)	
			chap	o'ng
1	(Bo'y, Vazn)	[-0.58, 0.46]	5 (163.83, 62.99)	359 (109.22, 11.71)
2	(Bo'y, Yosh)	[-1.90, 0.72]	164 (140.97, 85.60)	359 (109.22, 2.00)
3	(Vazn, Yosh)	[-1.79, 0.99]	222 (35.81, 82.00)	182 (61.80, 22.00)


2-jadvalda mumkin bo'lmagan obyektlarni taqdim etish uchun namunalar keltirilgan: (2) bo'yicha qiymat interval chegarasidan tashqarida yoki chegaraning o'zida (kritik xato); (2) bo'yicha qiymat interval chegarasiga xavfli yaqinlikda joylashgan (ogohlantirish).

2-jadval.

Shubhali obyektlarni taqdim etish

Obyekt nomeri	Alomatlar nomlari	Alomatlar qiymatlari	Interval	Alomatlar juftligi uchun (2) qiymati	Xato statusi
6	Bo'y	163.83	[-0.41, 0.44]	-0.47	<i>Kritik xato</i>
	Vazn	62.99			
90	Bo'y	136.53	[-2.23, 0.66]	-2.01	<i>Ogohlantirish</i>
	Yosh	79.00			
90	Vazn	36.29	[-2.15, 0.73]	-2.02	<i>Ogohlantirish</i>
	Yosh	79.00			
165	Vazn	40.94	[-2.14, 0.73]	-2.15	<i>Kritik xato</i>
	Yosh	85.60			
174	Vazn	32.21	[-2.15, 0.73]	-2.12	<i>Ogohlantirish</i>
	Yosh	79.00			

1-rasmda taklif qilingan usul bo'yicha alomatlar juftligi bo'yicha qurilgan interval orasida obyektlarning joylashuvi ko'rsatilgan. "X" belgisi bilan alomatlar juftligi bo'yicha mantiqiy mos bo'lmagan qiymatlari bo'lishi mumkin bo'lgan obyektlar (anomal obyektlar) ajratib ko'rsatilgan. Bunda anomal obyektlar sifatida interval chegarasidan $5h$ masofada yotgan obyektlar qaralgan, $h = (z_2 - z_1) / 100$.



1-rasm. Alomatlar juftligi bo'yicha obyektlarning grafik ko'rinishi

Anomal obyektlarni aniqlash usullarini taqqoslash uchun boshlang'ich (asl) berilganlarga sun'iy ravishda 20 ta anomal obyekt qo'shib hisoblash eksperimenti o'tkazildi. Taklif etilayotgan usul alomatlar juftligi bilan ishlaganligi sababli eksperiment jarayonida obyekt bir juft alomatlarga nisbatan bo'lsa ham anomal obyekt deb hisoblandi. Taqqoslashni yanada aniqroq taqdim etish maqsadida aniqlik (precision) va f_1 -bahodan (f_1 -score) foydalanildi. Taqqoslash natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Anomal obyektlarni aniqlash bo'yicha solishtirma natijalar

Test №	Isolation Forest		DBSCAN		Taklif etilayotgan usul	
	F_1 baho	Aniqlik	F_1 baho	Aniqlik	F_1 baho	Aniqlik
Test 1	0.70	0.70	0.92	0.90	0.85	1.00
Test 2	0.80	0.80	0.90	0.86	0.91	1.00
Test 3	0.75	0.75	0.90	0.86	0.88	1.00
Test 4	0.70	0.70	0.90	0.86	0.91	1.00
Test 5	0.70	0.70	0.92	0.92	0.72	0.62
Test 6	0.65	0.65	0.90	0.90	0.88	1.00
Test 7	0.60	0.60	0.90	0.90	0.91	1.00
Test 8	0.70	0.70	0.88	0.82	0.82	0.77
Test 9	0.75	0.75	0.88	0.82	0.91	1.00
Test 10	0.70	0.70	0.85	0.81	0.88	1.00
O'rtacha	0.70	0.70	0.89	0.86	0.87	0.94

3-jadvalga ko'ra, DBSCAN usuli natijalarida, ko'plab testlarda f_1 -bahosi tavsiya etilgan usuldan oshib ketgan, ammo tavsiya etilgan usulda aniqlik yuqori natija bergan. Aslida, qo'yilgan vazifa anomal obyektlarni topish bo'lgani uchun ham aniqlik qiymati (to'g'ri topilgan (haqiqiy) ijobiy qiymatlar nisbati) bo'yicha taklif etilayotgan usul orqali ko'proq anomal obyektlarni topish mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

Dissertatsiyaning **“To'liq bo'lmagan berilganlarda qaror qabul qilish va uning ishonchligini baholash algoritmlari”** nomli uchinchi bobida to'liqmas berilganlarda alomatlarining turg'unlik xossasi, alomatlar to'plamining informativligini baholash usuli, umumlashgan baxo asosida alomatlar fazosini

qisqartirish usuli va tasniflash algoritmlarini qo'llash hamda sinfga ajratish aniqligini baholash natijalari keltirilgan.

Masalaning qo'yilishi. Obyektlari o'zaro kesishmaydigan K_1 va K_2 sinflarga bo'lingan $E_0 = \{S_1, \dots, S_m\}$ to'plam (tanlanma) berilgan bo'lsin. Tanlanma obyektlari n ta turli toifadagi alomatlar to'plami $X(n) = \{x_1, \dots, x_n\}$ bilan tavsiflangan bo'lib, ularning δ ($\delta < n$) tasi nominal, $n - \delta$ tasi miqdoriy shkalada o'lchanadi. Berilganlarda o'tkazib yuborilgan qiymatlar mavjud deb qaraladi. O'ng'aylik uchun, K_1 sinf vakillarini ro'y bergan holatlar (holatlar) va K_2 – ro'y bermagan holatlar (no holatlar) deb hisoblanadi. Ikki sinfli masala qaralishiga sabablardan biri – har qanday obyektning umumlashgan bahosi nisbiydir, u qarama-qarshi sinf obyektlariga qiyoslash natijasida yuzaga keladi. Ikkinchidan, har qanday k ($k > 2$) sinfli masalani ikki sinfli masalalar kaskadi ko'rinishida yechish mumkin. $X(n)$ ga tegishli alomatlarning o'lchangan qiymatlari to'plamida aniqlangan manfiy bo'lmagan o'lchov – $\mu(x_i)$ aniqlangan bo'lsin. Talab qilinadi:

- miqdoriy alomatlar uchun ustunlik intervallarini hisoblash;
- intervallarning (nominal alomatlar uchun har bir gradatsiyaning) K_1 sinfga tegishlilik funksiyasi qiymatlarini hisoblash;
- o'lchangan qiymatlar soniga bog'liq ravishda $\mu(x_i)$ qiymatlaridagi tarqalishlarni (farqlanishlarni) baholash;
- $\mu(x_i)$ qiymatlari asosida alomatlar to'plamining informativligini hisoblash;
- tegishlilik funksiyasi asosida alomatlar fazosini noxiziq o'girish;
- ko'rsatilgan alomatlar to'plamlari asosida obyektlarning umumlashgan baholarini hisoblash orqali yangi alomatlar fazosini qurish;
- yangi alomatlar fazosida tasniflash aniqligini baholash.

Turg'unlik qiymatini baholashning obyektivligini isbotlash uchun obyektlar tavsifidagi bo'shliqlarni tasodifiy taqsimlash bilan tajriba o'tkazildi. Har bir alomat bo'yicha o'tkazib yuborilgan qiymatlar foizi 0.0% dan 35.0% gacha bo'lgan holatlar tahlil qilindi. O'tkazib yuborilgan qiymatlarning alomatning turg'unligiga ta'sirini tadqiq qilish bo'yicha eksperiment natijalarining bir qismi 4-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi dispersiya qiymatlarining tahlili o'tkazib yuborilgan qiymatlar bo'lganda ham turg'unlik qiymatining past o'zgaruvchanligi haqida xulosa qilish mumkin.

4-jadval.

Turg'unlik qiymatlari bo'yicha eksperiment natijalari

Alomat nomi	Matematik kutilma	Dispersiya	Alomat nomi	Matematik kutilma	Dispersiya
Region	0.6016	0.000068	Normal Chair	0.5339	0.000250
Occupation	0.6094	0.000105	Constipation	0.5566	0.000064
Age	0.6204	0.000174	Stool Frequency	0.5351	0.000176
Gender	0.5175	0.000244	Chair Character	0.5380	0.000100
Pyrazinamide	0.5464	0.000052	Eosinophils	0.5862	0.000124
Ethambutol	0.5111	0.000074	Lymphocytes	0.6015	0.000760
...

Alomatlarning matematik kutilmasi qiymatlarini o'smaydigan tartibdagi ketma-ketligini

$$\omega_1(t_1), \dots, \omega_g(t_g), \dots, \omega_n(t_n), \quad t_i \in \{1, \dots, n\} \quad (3)$$

orqali belgilaylik. (3) ketma-ketlik elementlarining indekslarini alomat rangi deb qaraladi. Ixtiyoriy mumkin bo'lgan S obyekt tavsifidagi qiymati mavjud bo'lgan k ($[n/2] \leq k < n$) ta alomatlar to'plam ostisining informativligini aniqlashni ko'raylik. 4-jadvaldagi qiymatlar asosida alomatlarning tartiblangan ketma-ketligi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{aligned} & x_{48}, x_{14}, x_{16}, x_{15}, x_{40}, x_{36}, x_{38}, x_1, x_3, x_{32}, x_{39}, x_2, x_{47}, x_{43}, x_{45}, x_{44}, \\ & x_{46}, x_{18}, x_5, x_{42}, x_{17}, x_9, x_{26}, x_{20}, x_{23}, x_{25}, x_{24}, x_8, x_{33}, x_{34}, x_{27}, x_{19}, \\ & x_{22}, x_{28}, x_{29}, x_{35}, x_{41}, x_{12}, x_{37}, x_6, x_{31}, x_{21}, x_{13}, x_{30}, x_{11}, x_4, x_{10}, x_7. \end{aligned} \quad (4)$$

Aytaylik, $D(S, k)$ – S obyektning o'lgangan qiymatli k ta alomatlarining ranglarining yig'indisi bo'lsin. Yig'indi qiymati $k(1+k)/2 \leq D(S, k) \leq k(2n-k+1)/2$ oralig'ida bo'ladi. S obyekt tavsifidagi qiymati mavjud bo'lgan k ta ($[n/2] \leq k < n$) alomatlar to'plam ostisining informativligini baholash uchun

$$\Omega(S, k) = 1 - \left(\frac{D(S, k) - \alpha}{\beta - \alpha} \right) \left(1 - \frac{k}{n} \right) \quad (5)$$

o'lchovidan foydalanish taklif qilinadi. Bu yerda $\alpha = k(1+k)/2$, $\beta = k(2n-k+1)/2$. (5) o'lchovni ixtiyoriy obyekt tavsifidagi berilganlarni tahlil qilishda qo'llash tavsiya qilinadi. Masalan, o'tkazib yuborilgan qiymatlari mavjud bo'lgan obyekt bo'yicha qaror qabul qilishda qo'shimcha indikator (qarorga ishonch o'lchovi) sifatida ishlatilishi mumkin. 5-jadvalda (4) ga muvofiq, alomatlarning ba'zi to'plamlariga nisbatan informativlik o'lchovini qo'llash namunalari keltirilgan. Xulosa uchun informativlik o'lchovining mumkin bo'lgan qiymatlari diapazoni mutaxassis tomonidan mustaqil ravishda belgilanishi mumkin. Jadvaldagi namunada diapazonlar quyidagicha belgilangan:

- $[0, 0.6)$ – “yetarli emas”;
- $[0.6, 0.72)$ – “qoniqarli”;
- $[0.72, 0.86)$ – “yetarli”;
- $[0.86, 1.0]$ – “mos keladi”.

5-jadval.

Alomatlar to'plami uchun informativlik o'lchovi

№	Ishlatilgan alomat nomerlari	Xulosa	(5) qiymati
1	4, 6, 8, 9, 10, 11, 13, 17, 19, 21, 23, 24, 25, 27, 29, 30, 31, 33, 35, 41, 42	yetarli emas	0.5179
2	4, 6, 7, 8, 10, 11, 13, 19, 21, 22, 27, 28, 29, 30, 31, 33, 34, 35, 37, 41	yetarli emas	0.4271
3	8, 9, 12, 17, 19, 20, 22, 23, 26, 27, 29, 33, 34, 35, 36, 37, 39, 42, 44, 46	qoniqarli	0.6813
4	2, 5, 6, 8, 13, 19, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 35, 37, 39, 41, 45	qoniqarli	0.6313

№	Ishlatilgan alomat nomerlari	Xulosa	(5) qiymati
5	1, 5, 8, 9, 17, 19, 23, 25, 26, 27, 28, 32, 33, 35, 37, 38, 40, 42, 43, 44, 46	yetarli	0.7708
6	2, 3, 5, 9, 12, 17, 18, 19, 20, 22, 25, 26, 28, 33, 35, 36, 38, 40, 43, 44, 46, 47	yetarli	0.8097
7	1, 2, 3, 5, 9, 14, 15, 17, 18, 19, 22, 23, 24, 26, 32, 33, 34, 38, 39, 42, 46, 48	mos keladi	0.8797
8	3,5, 9, 14, 15, 16, 17, 20, 26, 32, 34, 38, 39, 40, 42, 43, 44, 46, 47, 48	mos keladi	0.9365

Alomatlar qiymatlarini noxiziqli o'g'irishning mohiyati boshlang'ich qiymatlarni sinflarga tegishlilik funksiyalari qiymatlari bilan almashtirish hisoblanadi. $x_c \in X(n)$ uchun sinf obyektlari orasidagi masofa quyidagicha aniqlanadi:

$$G_c = \frac{q_1 + q_2}{2}, \quad (6)$$

bu yerda $q_1 = \min\{f_c(\gamma) \mid 1 - f_c(\gamma) < 0.5, \gamma = 1, \dots, \tau_c\}$

$q_2 = \max\{f_c(\gamma) \mid 0.5 - f_c(\gamma) > 0, \gamma = 1, \dots, \tau_c\}$.

$S_i = \{x_{iu}\}_{u \in D}$ obyekt uchun (6) dan foydalanib α_{ic} gradatsiya qiymatini hisoblashda o'lchov shkalalarini hisobga olgan holda quyidagi ikki shartning biri ko'riladi: $x_{ic} \in [r_u, r_v]^\gamma$ yoki $x_{ic} = \gamma$. α_{ic} qiymatini hisoblashda tegishlilik funksiyasidan foydalaniladi:

$$a_{ic} = \begin{cases} 1, & f_c(\gamma) < G_c, \\ 2, & f_c(\gamma) > G_c. \end{cases}$$

Obyektning umumlashgan bahosini hisoblash uchun $\{1,2\}$ gradatsiyalar bilan tavsiflanuvchi alomatlar hissasidan foydalaniladi. x_c alomatning $j \in \{1,2\}$ gradatsiya bo'yicha xissasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_c(j) = w_c \left(\frac{\alpha_{cj}^1}{T_{1c}} - \frac{\alpha_{cj}^2}{T_{2c}} \right), \quad (7)$$

bu yerda $\alpha_{cj}^1, \alpha_{cj}^2$ – x_c alomatning j gradatsiyasining mos ravishda K_1 va K_2 sinflardagi miqdori, w_c – x_c alomatning sinf ichidagi o'xshashlik va sinflararo farqlanish ko'paytmasi orqali hisoblangan vazni. Nominal o'lchov shkalasida tavsiflangan $S_r \in E_0$ obyektning umumlashgan bahosi quyidagicha hisoblanadi:

$$R(S_r) = \sum_{i \in D} \eta_c(\alpha_{ri}). \quad (8)$$

Yangi alomatlar fazosini qurishda asosiy kriteriya sifatida turg'unlik qiymati olinadi. Alomat turg'unligining qiymatlari $(0.5;1]$ intervalga tushadi. Agar turg'unlik qiymati birga teng bo'lsa, tanlanmadagi obyektlar K_1 va K_2 sinflarga xatosiz ajratiladi. Nisbatan kichik turg'unlik qiymatiga ega bo'lgan alomatlarni

olib tashlash berilganlarni tahlil qilish algoritmlarida hisoblash murakkabligini kamaytirish uchun taklif qilinadi.

Ω , $\Omega \subset X(n)$ orqali nisbatan kichik turg'unlik qiymatiga ega bo'lgan nominal alomatlar to'plami belgilansin, u holda $\Pi = \{i | i = X(n) \setminus \Omega\}$ guruhlashda ishlatiladigan alomatlar nomerlari. Latent alomatlar hosil qilishda Π dagi turli alomatlar guruhlaridan foydalaniladi. Alomatlar turg'unlik qiymati bo'yicha tartiblanadi va k tadan ($k = 2, \dots, |\Pi|/2$) guruhlanadi. k ning optimal qiymati hisoblash eksperimenti orqali aniqlanadi. Har bir alomatlar guruhlar bo'yicha (7) va (8) orqali umumlashgan baholar hisoblanadi. Umumlashgan baholar qiymatidan to'liq bo'lgan yangi alomatlar fazosida obyekt tavsifidagi latent alomatlar qiymatlari sifatida foydalaniladi.

Birinchi hisoblash eksperimenti uchun ikkita tanlanma olingan. Ulardan biri 167 obyekt, 48 ta alomat (16 tasi miqdoriy, 32 tasi nominal) bilan tavsiflangan tuberkulyoz kasalligi bemorlari bazasi. Ikkincha baza – Viskonsinda ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bemorlar, 569 ta obyekt, 30 ta alomat bilan tavsiflangan (barchasi miqdoriy). Har bir alomatlar uchun 0.0% dan 50.0% gacha bo'sh qiymatlar sun'iy ravishda hosil qilingan. Alomatlar turg'unlik qiymati bo'yicha tartiblanadi va k tadan guruhlanadi. k ning optimal qiymati hisoblash eksperimenti orqali aniqlandi. Yangi alomatlar fazosida tasniflash aniqligi quyidagi mashinali o'rgatish usullari orqali tekshirildi:

- Bayes klassifikatori (Naïve Bayes);
- k-yaqin qo'shnilar uchuli (k-nearest neighbors, KNN);
